

### " LAYLI VA MAJNUN" DOSTONING SYUJETI .

*Jabborova Sarvinoz Ahadjon qizi*

*Fargʻona davlat universiteti filologiya fakultetini oʻzbek tili yoʻnalishi 2-bosqich talabasi*

*+998905822004 sarvinozjabborova334@gmail.com*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada "Layli va majnun "dostonidagi voqea hodisalar haqida soʻz boradi . Qissalar syujetining badiiy adabiyot namunalarida aks ettirishi va ayrim ijodkorlar manbalaridagi namunalar keltirib oʻtiladi .

**Kalit soʻzlar:** Majnun obrazi, Majnun obrazi ,Ibn Salom

**Аннотация:**В данной статье рассказывается о событиях эпоса «Лейли и безумец». Приводится отражение сюжета повестей на примерах художественной литературы и примерах из источников некоторых авторов.

**Ключевые слова:** образ Меджнуна, образ Меджнуна, Ибн Салам

**Annotation:** This article talks about the events in the epic "Layli and the Madman". The reflection of the plot of the stories in the examples of fiction and examples from the sources of some creators are cited.

**Keywords:** image of Majnun, image of Majnun, Ibn Salam

" Layli va Majnun" jahon adabiyotida sevgi haqida yaratilgan eng gʻamgin qissalardan biridir.Biz biron bir boshqa asarlarda "Layli va Majnun" dek sevishtanlar taqdiri fojiviy voqealar oʻta taʼsirli ochilganini bilmaymiz.

"Layli va Majnun" asari koʻp yilga ega. Uning ildizlari mashhur adabiyotshunos-matnshunos olim I.Krakovskiy taʼkidlaganidek VII asrning ikkinchi yarmiga borib taqaladi. Majnun tarixiy shaxs U Omir qabilasidan chiqqan , uning asl ismi Qays ibn Mullavvah yoki Qays ibn Murod boʻlgan. U qabiladoshi Laylini sevgan va oʻz sevgisi va hijronlari haqida mungli sheʼrlar bitgan. Majnun nomi majoziy,sevgi hijron sheʼrlari esa umaviy xonadoniga mansub bir oshiq yigit tomonidan bitilgan va oʻz nomini oshkor etmaslik uchun Majnun nomini qoʻllagan deyishadi. Shu tariqa VII asrning ikkinchi yarmidan boshlab arab poeziyasida Majnun taxallusida mungli sheʼrlar koʻpayib borgan.

Muallif Layli tasvirini berib uni goʻzal qiz qilib koʻrsatadi. Majnun aqlli qobiliyati qiyofada. Avom ishqida bir-birini koʻrgandan keyin sevgi tugʻilad,ungacha bu tuygʻu haqida bilmaydilar.Majnun esa dunyoga dard( ishq) bilan keldi.Bu "gʻodak beshikda figʻonlar tortar avgʻonda esa dardning nishoni sezilar edi " , yoki "Oʻtni koʻrganda uni ishq oʻti gumon qilib, unga yashirincha mayl qilar edi" kabi jumladan bilib olish mumkin. Avom ishqida bir-birlarni

ko'rgandan baxtiyor bo'ladilar , mobodo vasl umidi natijasiz bo'lsa, azob boshladi. Layli va Majnun ilk uchrashuvda rohat emas, azob tuyadilar . Hushidan ketish Alloh jilvasiga dosh berolmaslik xoslar ishqidan namuna bo'ladi. Majnun holati " G'am ustida, g'am yutdi" deb tasvirlanadi. Shundan so'ng Majnun Laylini qidiradi. Laylini gul, g'uncha, sarv sabza , tuproqdan so'raydi. Bu holat ham Allohning zarbasi yer yuzida yozilganligiga ishoradir.

Asarda xoslar ishq bayon qilingani uchun islomi qarashlar ko'p uchraydi. Majnun dashtu saholarda fig'on tortib kezish odat bo'lganidan- tarki dunyo, faqat Allohga sig'inish , "Beishq xalqning maqsadi uyqu, ishq ahlig'a uyqu harom" jumlasidan-bandaga tunlari zikr va ibodat bilan o'tkazish afzalligi; Ibn Salom va Laylining to'yi bo'lmaganligi bayon qilib, "G'oyo bu voqealardan nazarini uzmagan munajjim, bu ishlarni ma'lum bir soatga tayin qilgandek edi . Lekin bu ishqda ular ham ojizlik qilar edi , yani munajjimlar - aldiqchilardir." jumlasidan dinimizda folbinlik va unga ishonish harom qilinganligi umri tutayotgan Layli onasiga oh- voh bilan aza tutmaslikni vasiyat qiladi -islomda buyurilgan sabrni anglash mumkin.

Asarda avom ishq timsollar ham beriladi. Masalan, Ibn Salom u Layli ko'rishi bilanoq to'yga hozirlik ko'radi. Majnun esa nikoh emas, allox vasli umidi bilan yashaydi. Yoki yana bir qahramon Navfalning qiziva uning muhabbati haqida gapirganda "jazman yigit" ta'rif beriladi. Layli va Majnun uchrashganlarida esa, Majnun badaniga ma'shuqa ruhi bo'lib kiradi deyiladi.

Majnuni ota-onsi tushunmadi- ishqni kasallik deb fahmladi. Tabiblar tushunmadi bu dardni davolamoqchi bo'ldi Biz ham tushunmay unga avom ishq nisbati berdik. Yuqorida " Layli va Majnun" da xoslar ishq tarannum etilganini isbotlashga harakat qildim.

Majnun yoriga yetishish yo'lida hech narsadan taft tortmaydigan oshiq hayot va tabiatning turfa xil ne'matlaridam baxramand bo'lishni istamaydigan telba , yoru do'stlarini, ota-onasi qadriga yeta olmaydigan notovon obraz sifatida namoyon bo'lishida ham bir ma'no bor. Bu jumllarini bir qator misollar bilan yoritishga harakat qilaman. Majnun bu - muhabbat kuychisi. Layliga bo'lgan sevgisiga esa yaratganga bo'lgan sevgisining zoxiriy ko'rinishidir.

Asar yakunida esa ikki oshiq qalb bu og'ir judolikka chiday olmay ular ham vafot etadi. Kafanga o'ralib bir tobutga solgan holda dafn qilinadi. Layli va Majnun bu foni bir biriga diydor ko'rishmoqqa qanchalar urinsalar ham taqdirning turfa o'yinni va qismatning dardli yakuni oldida ularning jism-u joni ojiz edilar . So'ngra vafot etib, ruhlari nihoyat taskin topdi. Pok ruhlar va sof muhabbatlari ila barhayot dunyoga ravona bo'ldilar. Zero haqiqiy mehr - muhabbat mavjud bo'lgan joy Allox Taolloning dargohidir!

### Foydalanadigan adabiyotlar ro'yxati:

1. SH.Sirojjidinov, D. Yusupova, Navoiyshunoslik 2019
2. Jomiy va Navoiy ziyo com
3. Alisher Navoiy " Layli va Majnun". O'zbek adabiyot bo'stoni . Toshkent G'.G'ulom nomidagi nashriyoti. 1991-yil.
4. Alisher Navoiy " Xamsa" T: Sharq. 2016.